

4-SINF “O‘QISH SAVODXONLIGI” DARSLIGIDAGI “DO‘STLIKDA GAP KO‘P EKAN” ERTAGI BADIY TAHLILI

Nasriddinova Iroda Akmal qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Sayfiddinova Jamila

Samarqand davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada "Do‘stlikda gap ko‘p ekan" o‘zbek xalq ertagi badiiy va g‘oyaviy jihatdan keng tahlil qilinadi. Asarda do‘stlik, mehr-oqibat va muloqotning inson hayotidagi o‘rni bugungi kun talablari asosida yoritiladi. Qog‘ozvoy va Kesakvoy obrazlari orqali insonning yolg‘izlik holati, do‘stga bo‘lgan ehtiyoji va samimiy munosabatlarning ahamiyati ochib beriladi. Tahlil jarayonida savol-javob usuli qo‘llanib, ertakning mazmuni, ramziy jihatlari va tarbiyaviy ahamiyati ilmiy asosda izohlanadi.

Kalit so‘zlar: do‘stlik, ertak, muloqot, obraz, Qog‘ozvoy, Kesakvoy, tarbiya, xalq og‘zaki ijodi, mehr-oqibat, hamdardlik

Kirish

O‘zbek xalq og‘zaki ijodi xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, dunyoqarashi va ma‘naviy qadriyatlarini o‘zida aks ettiradi [5] Ertaklar yosh avlodni tarbiyalashda muhim vosita bo‘lib, ular orqali insoniy fazilatlar sodda, ammo ta‘sirchan tarzda yetkaziladi. Ayniqsa ertaklar yosh avlodni tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Ular orqali bolalarga insoniy fazilatlar, hayotiy tajribalar va ijtimoiy munosabatlar sodda, ammo ta‘sirchan tarzda yetkaziladi [1]. Xususan, "Do‘stlikda gap ko‘p ekan" ertagi ham shunday asarlardan biri bo‘lib...", unda do‘stlikning mohiyati, insonlar o‘rtasidagi muloqot va mehr-oqibatning ahamiyati badiiy obrazlar orqali ifodalangan. Ertak qahramonlari Qog‘ozvoy va Kesakvoy misolida insonning yolg‘izlik holati va do‘stga bo‘lgan ehtiyoji ochib beriladi.

Mazkur maqolaning maqsadi ushbu ertakni badiiy, g'oyaviy va tarbiyaviy jihatdan tahlil qilish, uning mazmun-mohiyatini ochib berishdan iborat.

Asosiy qism

4-sinf O'qish savodxonligi darsligida keltirilgan "Do'stlikda gap ko'p ekan" ertagini o'qituvchi o'quvchilarga asar mazmunini o'qib berdi. Katta dunyoning bir chekkasida, oppoq va yupqa Qog'ozvoy yashar edi. Uning hayoti sokin bo'lsa-da, qalbida ulkan bir bo'shliq bor edi. U o'zini haddan tashqari yolg'iz his qilardi [2]. Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga murojaat qilib, asar bosh qahramoni haqida savol berdi. Bolalar, Qog'ozvoy nima sababdan o'z joyini tark etib, yo'lga chiqdi, deb o'ylaysizlar? O'quvchilar bu savol ustida o'ylab, quydagicha fikr bildirdilar: U yolg'izlikdan zerikkan edi. Yolg'iz yashash unga yoqmadi, shuning uchun u o'ziga do'st topish niyatida safarga chiqdi. Bu holat shuni ko'rsatdiki, inson har doim boshqalar bilan muloqotda bo'lishni istaydi. U bir joyda turib sarg'aygandan ko'ra, o'z baxtini va sirdoshini topish uchun no'malum tomonga yo'lga chiqishga qaror qildi. Qog'ozvoy yo'l yurib, turli joylardan o'tadi va nihoyat Kesakvoyni uchratib qoldi. Shu o'rinda o'qituvchi o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish uchun savol bilan yondashadi. Kesakvoy qanday holatda tasvirlangan? O'quvchilar uning ustida qor va do'l yog'ayotganini takidlab, bu holatni hayotdagi qiyinchiliklar va sinovlarning ramziy ifodasi sifatida izohlashadi. Shuningdek, o'qituvchi Qog'ozvoyning ushbu vaziyatdagi munosabatini tahlil qilishni taklif etdi. Qog'ozvoyning munosabati qanday? O'quvchilar Qog'ozvoy uning yonidan beparvo o'tib keta olmaganligini, insoniylik va hamdardlik tuyg'usi uni to'xtashga majbur qilganligini, u muloyimlik va samimiylik bilan suhbat boshlaganini aytishdi. Ularning fikricha, aynan shu jarayon voqealar rivojining muhim burilish nuqtasi hisoblanadi.

O'qituvchi o'quvchilarga ertak qahramonlarini tasavvur qilishi va ularning xarakterini ochib berishga yo'naltirdi. O'quvchilar Qog'ozvoy obrazini mehribon, samimiy, faol, do'stona ekanligini aytishadi. Bu fazilatlar esa, yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyatga ega. [5] Shuningdek, o'qituvchi Kesakvoy obrazining mazmunini ochishni taklif etdi. O'quvchilar uni yolg'izlik va hayot qiyinchiliklarining ramziy ifodasi

sifatida tushuntirdilar. Ular Kesakvoyning do'st izlash istagini insonning ichki ehtiyoji sifatida izoh berdilar. O'quvchilar fikriga ko'ra ,ushbu ikki obraz bir-birini to'ldirib ,hayotning muhim haqiqatini -inson ba'zan yordam beruvchi ,ba'zan esa yordamga muhtoj bo'lishini ko'rsatadi. O'qituvchi ertakdagi suhbatlarga alohida e'tibor qaratib,o'quvchilardan dialoglar orqali qahramonlarning ichki kechinmalarini ochib berishni ta'kidladi. Ular oddiy salomlashuvning o'z hurmat va samimiyat belgisi ekanini ,aynan shu orqali do'stlikning boshlanishi yuzaga kelishini angladilar.Shuningdek ,o'quvchilar "Nega bunchalik hafasan ?" degan savolni hamdardlik va e'tibor ifodasi sifatida baholadilar.Kesakvoyning "Do'st izlayapman " degan javobi esa ular tomonidan inson uchun yolg'izlikning og'ir sinov ekanini ko'rsatadigan muhim fikr sifatida talqin qilindi.O'qituvchi o'quvchilarni asarning g'oyaviy mazmuni ustida fikr yuritishga undaydi.Darsning muhim bosqichlaridan birida o'qituvchi o'quvchilarga asar nomining mazmunini izohlashni taklif etdi.O'quvchilar "Do'stlikda gap ko'p ekan " iborasini keng ma'noda sharhlab ,do'stlik faqat birga bo'lish emas ,balki suhbatlashish ,dardlashish va o'zaro tushunish jarayonlaridan iborat ekanini ta'kidlashdi. Ular asarning asosiy g'oyasi do'stlikning aynan muloqot orqali shakllanishini ko'rsatishdan iborat ekanini xulosa qildilar.O'qituvchi o'quvchilarning asardan olinadigan tarbiyaviy xulosalarini shakllantirishga yo'naltirdi. Dars yakuniy bosqichida o'qituvchi o'quvchilarning diqqatini ertakning tarbiyaviy jihatlariga qaratib ,ularni mustaqil fikr yuritishga undaydi.O'quvchilar asar mazmuni asosida insoniy munosabatlar , ayniqsa do'stlikning hayotdagi o'rni haqida o'z mulohazalarini bildirdilar. O'quvchilar umumiy xulosa qilib , muloqot insonlarni yaqinlashtiruvchi asosiy vosita ekanini ,do'stlik esa aynan samimiy suhbatdan boshlanishini anglab yetdilar.

Badiiy asar tahlili jarayonida Do'stlikda gap ko'p ekan ertagi kichik hajmiga qaramay, inson hayotining eng muhim qirralarini ochib beruvchi chuqur falsafiy asardir .Uni tahlil qilar ekanman ,asardagi har bir ramziy obraz va muloqot zamirida ulkan haqiqatlar yashiringaniga amin bo'ldim .

Bu hikoya tahlilidan soʻng, bu ertak shunchaki Bolalar uchun yozilgan hikoya emas, balki kattalar uchun ham muloqot va hamdardlik darsligidir.

Muloqot orqali ikki inson bir -birining dunyoqarashini oʻrganadi:

Suhbat-bu koʻprik. Agar suhbat boʻlmasa, odamlar bir -birining yonida boʻlsa ham begona boʻlib qolaveradi.

Xulosa qilib aytadigan boʻlsak, muloqot — hayot asosi. Doʻstlikning ilk poydevori samimiy soʻrashish va muloqotdan boshlanadi. Qogʻozvoyning befarq boʻlmagani muloqot madaniyatining yuksak namunasi.

Hamdardlik kuchi: Mehr va eʼtibor har qanday sovuq va qiyin vaziyatda insonlarni birlashtira oladigan yagona kuchdir.

Yolgʻizlikka qarshi kurash: Inson ijtimoiy mavjudot boʻlgani uchun uning qalb boʻshligʻini faqat samimiy va doʻstona munosabatlar toʻldira oladi.

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, ushbu asar orqali biz nafaqat doʻst topishni, balki atrofdagilarning dardi bilan yashashni ham oʻrganamiz. Ertakning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u bizni befarqlikdan uygʻonishga, hamdard va samimiy boʻlishga chorlaydi. Bu esa har qanday davrda oʻz dolzarbligini yoʻqotmaydigan yuksak maʼnaviy fazilatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoʻlimizni qatʼiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga koʻtaramiz. 1-jild. – Toshkent: “Oʻzbekiston” NMIU, 2017. – 592 b.
2. Azizov.N.K Oʻqish savodxonligi 4-sinf 2-qism. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari uchun darslik, "Novda Edutainment" Toshkent -2023.-80 b.
3. Joʻrayev M. Folklor va etnografiya. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2015. – 256 b.
4. Mirzayev T. Xalq ogʻzaki ijodi asoslari. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2009. – 160 b.

5. Rahmonov N. O'zbek xalq og'zaki ijodi. – Toshkent: Fan, 2012. – 320 b.

6. Yo'ldoshev Q., Qodirov B. Adabiyot o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
– 280 b.